



# KONFERENSIYA

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI  
RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN  
KREATIV G’OYALAR,  
TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”**

@bestpublication |     | Street: Alisher Navoiy

**FARG’ONA 2022**



**MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**

**SO’Z BOSHI**

<b>Сатимов Баходир Манглибой ўғли</b> <i>ХОРАЗМ ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ҲАРБИЙ ҚУРОЛЛАНИШИНИ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРИДА АКС ЭТИШИ ( МИЛ.АВВ. VI-V АСРЛАР).</i>	7
<b>Shukrullayev Sh.N, Razzoqov H.Q</b> <i>ARALASH TOLALI MATERIALLARNI BO’YASH VA GUL BOSISH JARAYONLARINING FIZIK-KIMYOVIY ASOSLARINI O’RGANISH</i>	11
<b>Shukrullayev Sh.N, Razzoqov H.Q</b> <i>KIMYOVIY TADQIQOTLARDA ILMIIY METODNING ROLI.</i>	14
<b>Abduraximova Feruza Xabibullayevna</b> <i>KIMYO FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	17
<b>Akramov Firdavs</b> <i>INSON QADRI</i>	19
<b>Umanova Shoir Abdullajanovna</b> <i>BIOLOGIYA FANI DARSLARIDA YANGI PEDTEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	22
<b>Mamato’rayeva Nilufar Qohhorovna</b> <i>BOSHLANG’ICH SINFI O’QUVCHILARIDA OG’ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH.</i>	24
<b>Abduvasiyeva Dilobar Otabekovna</b> <i>O’SMIRLIK YOSH DAVRLARIDA PSIXOLOGIK O’ZGARISHLAR, O’SMIRLARNING YAQINLARI BILAN MUNOSABATLARI VA UNING TAHLILI</i>	27
<b>Ilimbayev Sardor</b> <i>G’AFUR G’ULOM IJODI ADABIYOTSHUNOS OLIMLAR NAZDIDA</i>	29
<b>Ismoilova Sojida Yuldashevna</b> <i>UMUMIY O’RTA TA’LIMDA MATEMATIKA O’QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI</i>	32
<b>Gapporova Zamira Qodirovna</b> <i>PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNING BOSHLANG’ICH SINFI O’QITUVCHILARI DARS FAOLIYATIDAGI O’RNI.</i>	35
<b>Murtozayeva Zarnigor Komol qizi</b> <i>O’ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO’LLANILISHI VA BUNING IJOBIY TARAFLARI</i>	37
<b>Mustafoyeva Dildora Kamoliddinovna</b> <i>PSIXOLOGLAR OLDIDA TURGAN MUAMMOLAR.</i>	39
<b>Togayeva Gulnora Siddikovna, Raxmatov Ozodjon, Isomiddinova Mohinbonu</b> <i>SEMIZLIK KASALLIGINING RIVOJLANISHI VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI.</i>	41
<b>Xamrayev Og’abek Ziyodullo o’g’li, Kandaxorova Madina Ishratovna</b> <i>YANGI O’ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR</i>	43
<b>Xasanov Bahodir Baxtiyorovich</b> <i>TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O’QITUVCHILARNING O’RNI VA SAMARADORLIKKA ERISHISHDA AHAMIYAT BERILISHI LOZIM BO’LGAN JIHATLAR</i>	46
<b>Амонжонов Сардорбек Набижон ўғли</b> <i>ЧОР ХУКУМАТИ ДАВРИДА: ЎЗБЕКИСТОН САНОАТИ ТАРАҚҚИЁТ ЁКИ ТАНАЗЗУЛ?</i>	49
<b>Турсунов Асрор Алланазарович, Акбаралиев Тўлқин Акбарали ўғли</b> <i>ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИ</i>	51
<b>Амирханова Нагима Оразбоевна</b> <i>ИЗУЧЕНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.</i>	54
<b>Солиев Хуршидбек Обиджон ўғли</b> <i>ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНING ЎРНИ</i>	57
<b>Солиев Хуршидбек Обиджон ўғли</b> <i>ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА ИСЛОХОТЛАР ДАВОМ ЭТМОҚДА</i>	59
<b>Турдиева Зебинисо Абдулладжон кизи</b> <i>РАЗВИТИЕ РЕЧИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКСКОЙ ШКОЛЕ.</i>	61
<b>Одилжонова Донохон Одилжон кизи.</b>	63

## ARALASH TOLALI MATERIALLARNI BO’YASH VA GUL BOSISH JARAYONLARINING FIZIK-KIMYOVIY ASOSLARINI O’RGANISH.

**Shukrullayev Sh.N., Razzoqov H.Q.**

*Buxoro davlat universiteti*

Keyingi yillarda aralash tolalar asosidagi turli-tuman assortimentdagi gazlama va materiallarini soni ko’payib ketdi. Paxta va nitron, paxta va ipak, tabiiy ipak chiqindilari bilan modifikatsiya qilingan nitron asosidagi matolarni bo’yash, ularga gul bosish jarayonida mahalliy xom ashyolardan olingan quyuqlashtilarni ishlatish, bo’yovchi moddani (BM) to’g’ri tanlash yakunlovchi pardoqlashda matolarning iste’mol sifatini yaxshilaydi.

Hozirgi davrda assortimentlarni aralash tolali matolardan ko’paytirish va ular miqdorini kengaytirish keng yo’lga qo’yilgan. Aralash tolali matolarni keng miqyosda ishlatilishi, ularni pardoqlashga tayyorlashning maxsus usullarini ishlab chiqarishni taqozo etadi.[1]

Aralash tolali matolarni pardoqlashga tayyorlashda aralash tolali mato tarkibidagi tolaning xossalariga e’tibor berishimiz kerak. Bizga ma’lumki, to’qimachilik materiallarini bo’yashga va gul bosishga tayyorlashdan maqsad, tola tarkibidagi tabiiy iflosliklarni, yordamchi moddalarni (shlixta, yelimsimon moddalar) yo’qotishdan, ularga yetarli bo’lgan kapillyarlik va oqlik berishdan iborat.[1-2]

Yaponiyalik mutaxassislar aralash tolali matolarni ham ishqoriy, ham kislotali muhitda oqartirish mumkin degan xulosaga keldi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, oqartirish avval kuchsiz kislotali muhitda pH=5-7, polifosfor kislotasi ishtirokida boradi. Shuningdek polifosfor kislotasidan tashqari 100% li H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> ning 10 g/l konsentratsiyali eritmasi ishlatiladi. Ishlov vaqti 10-30 minut davom etadi. So’ng oqartirish vannasiga pH=9,5-11 bo’lgunga qadar ishqoriy agent qo’shiladi. T-100<sup>0</sup>C, ishlov vaqti 30 minut. Bunday oqartirish usuli orqali biz H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> ni tejashimiz mumkin.

Yana bir zamonaviy keng qo’llaniladigan usullardan biri, to’qimachilik materiallarini pardoqlashga tayyorlash jarayonida yuqori energiya manbalaridan foydalanishdir. Bu usul bir bosqichli usul hisoblanadi.

Oksidlovchilarni fotokimyoviy aktivlash yoki peroksidli vannalarni ultratovush bilan aktivlash natijasida yuqori sifatli oqlikka erishish mumkin. Oksidlovchilar sifatida peroksidli birikmalar, o’zida xlor tutgan oqartiruvchilar va xlordan foydalanish mumkin. Ultrabinafsha nurlanish oqartiruvchi moddani parchalanish jarayonini tezlashtiradi. Bu esa oqartirish jarayonini tezlashtiradi. Matoning oqligi 0,1-0,3 daqiqada 80-82% ga yetadi.

Bo’yash jarayoning real sharoitlarida selluloza bilan asosiy va suv bilan qo’shimcha reaksiyalar bir vaqda sodir bo’ladi, ba’zi faktorlar ikkala jarayonni ham ya’ni bo’yoqning tola bilan bog’lanishi va suvli eritmada uning gidrolizini tezlashtiradi. Shunga binoan, faol bo’yoqlarga quyidagi qo’shimcha talablar qo’yiladi.

- yuqori reaksiya qobiliyat;
- quruq holda va eritmada saqlashdagi ularning barqarorligi;
- bo’yoq va tola orasida kovalet bog’lanishning mustahkamligi;



-tolaga nisbatan yuqori substantlik darajasi.

Bo’yashning ratsional texnologiyasi ko’chirilganda va retseptura tuzilganda bo’yoqning maksimal singishini va uning gidroliz natijasida minimal yo’qotilishini ta’minlovchi parametrlarni (harorat, pH, jarayon vaqti, elektrolitlar konsentratsiyasi va boshqalarni) to’g’ri tanlash talab etiladi.

Aralash tolali matolarni bo’yash jarayonida bo’yovchi moddalar eritmasini tayyorlash va fizik-kimyoviy xossasiga etibor berish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.[3-4]

#### Jadval-1

#### Modul vanna – 50, bo’yaluvchi miqdori – 1 g bo’lganda bo’yash eritmasining tarkibi

Moddalar nomi	Miqdori, matoga og’irligi nisbatan foiz, hisobida	Konsentrlangan eritmadagi modda miqdori, g/l, hisobida	Qo’shilish kerak eritma miqdori, ml, hisobida
Bo’yovchi modda	3	1	30
Sirka kislota	5	50	1
Natriy sulfat	10	100	1
Suv	-	-	18

Aralash tolali mato komponentlaridan birini VVM dan tayyorlash orqali mahsulotning tashqi ko’rinishini, yumshoqligi va jilokorligini, gigiyenik xossalarini yaxshilashga erishiladi. Aralash tolalarni ishlatishdan maqsad - ishlab chiqariladigan mahsulotlar assortimentlarini kengaytirish, ular sifatini yaxshilash hamda tabiiy tolalarni kimyoviy tolalarga almashtirish muammolarini hal etish, ya’ni, tanqis bo’lmish tabiiy tolalar o’rnida kimyoviy tolalarni ishlatishdan iboratdir. Chunki, aralash tolalarni ishlatish bilan ko’pincha nafaqat qimmatbaho tabiiy tolali xom ashyo sarfini kamaytirishga erishiladi, balki ularning komfortli va amalda ishlatishning qulay bo’lishligiga erishiladi. Tolalarning turlari va ularning aralashmadagi nisbatiga ko’ra, har bir alohida olingan holat uchun turli xildagi tolalar arashmasi asosidagi gazlamalarni (polotno) tayyorlash usuli va sharoiti tanlanadi. Tayyorlash sharoiti shunday tanlanishi lozimki, bunda kimyoviy ishlov berganda so’ng aralashmadan yog’ va yog’lovchi birikmalar, ifloslantiruvchi moddalar va boshqalardan tolalarni shikastlantirmay va sifatini buzmay, maksimum tozalash imkoni berilsin.

Odatda, aralash tolalar asosidagi mahsulotlarni tayyorlash uchun maxsus jihozlar ishlatilmaydi, balki shu assortiment mahsulotlari uchun qo’llaniladigan jihozlardan, ayrim hollarda birlashtirilgan texnik jarayonlardan foydalaniladi.

Aralash tolali matolarni keng miqyosda ishlatilishi ularni pardozlashga tayyorlashning maxsus usullarni ishlab chiqarishni taqozo etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ravshanov Q.A., Ixriyarova G.A. Bo’yoqlar kimyosidan praktikum Buxoro Davlat universiteti. «Ziё-ризграф» bosmaхонаси. – Buxoro. 2006. 40 б.
2. <http://rustm.net/catalog/article> Активные красители, особенности химического строения и способов применения. Ж. Рынок легкой промышленности №47, 2006.
3. Справочник. Отделка х/б тканей. Мельников Б.Н. М., „Легпромбытиздат” , 1991г., часть; 349 с.
4. Мельников Б.Н. и др. «Интенсификация технологических процессов подготовки и беления х/б тканей» Текстильная промышленность. Экспрессинформация. М.: ЦНИИТЭИ, Легпром 1984.